

“O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy
faoliyat milliy banki” aksiyadorlik jamiyati
Aksiyadorlarining
14.11.2024 yildagi 26 - sonli yig‘ilish
qarori bilan
“TASDIQLANGAN”

**“O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT MILLIY BANKI”
AKSIYADORLIK JAMIYATI
KUZATUV KENGASHI
NIZOMI**

Toshkent - 2024

**“O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT
MILLIY BANKI” AKSIYADORLIK JAMIYATI
KUZATUV KENGASHI NIZOMI**

I. Umumiy bo‘lim

1.1. Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi, “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonunlari va “O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki” aksiyadorlik jamiyati (keyingi o‘rinlarda Bank) Ustaviga asosan ishlab chiqilgan bo‘lib, Bank Kuzatuv kengashining maqomini belgilaydi, uning ishini va Kuzatuv kengash a‘zolarini saylash tartibini, ularning asosiy vazifalari va funksiyalarini, huquq va burchlarini tartibga soladi.

1.2. Bank Kuzatuv kengashi Bankning boshqaruv organi bo‘lib, uning faoliyatiga umumiy rahbarlik qiladi va o‘z vazifalarini bajarish uchun javobgardir. Bankning kuzatuv kengashi bank faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi, boshqaruvga oid qarorlar qabul qilish jarayonida nazorat va tekshiruv vazifasini bajaradi hamda umuman bankning faoliyati va moliyaviy barqarorligi uchun javobgardir. Kuzatuv kengashi Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining mutlaq vakolatlariga kiradigan masalalardan tashqari, Bank faoliyatiga taalluqli barcha masalalarni hal qilish huquqiga ega.

1.3. Bank Kuzatuv kengashi Bank aksiyadorlarining umumiy yig‘ilishiga hisobdordir.

1.4. Bank Kuzatuv kengashi a‘zolari bankning oqilona korporativ boshqaruviga ko‘maklashadi hamda o‘z vakolatlarini va majburiyatlarini bajarish chog‘ida bankning, uning omonatchilari va aksiyadorlari ning qonuniy manfaatlarini inobatga oladi, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki bilan samarali hamkorlikni ta‘minlaydi.

II. Bank Kuzatuv kengashining vakolat doirasi

2.1. Bank Kuzatuv kengashi vakolatiga quydagi masalalar kiradi:

2.1.1. Bank rivojlantirish strategiyasiga erishish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar to‘g‘risida jamiyat Bank boshqaruvining hisobotini muntazam ravishda eshitib borgan holda jamiyat faoliyatining ustuvor yo‘nalishlarini belgilash;

2.1.2. Bank aksiyadorlarining yillik va navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishlarini chaqirish, qonun xujjatlarda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;

2.1.3. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining kun tartibini tayorlash;

2.1.4. Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi o‘tkaziladigan sana, vaqt va joyni belgilash;

2.1.5. Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi o‘tkazilishi haqida xabar qilish uchun jamiyat aksiyadorlarining reestrini shakllantirish sanasini belgilash;

2.1.6. Korporativ boshqaruv xizmati faoliyati tartibini belgilovchi nizomni tasdiqlash;

2.1.7. Bank mulkning bozor qiymatini belgilashni tashkil etish;

2.1.8. Bankning ijro organini (boshqaruvini) shakllantirish, bank boshqaruvi a‘zolarini saylash (tayinlash), ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish, ularga to‘lanadigan haqning eng yuqori miqdorini va samaradorlik ko‘rsatkichlarini belgilash tartibini tasdiqlash;

2.1.9. Bankning yillik biznes-rejasini tasdiqlash. Bunda Bankning kelgusi yil uchun biznes-rejasi Bank Kuzatuv kengashi majlisida joriy yilning 1 dekabridan kechiktirmay ma'qullanishi lozim;

2.1.10. Ichki audit xizmatini tashkil etish va uning xodimlarini tayinlash, shuningdek har chorakda uning hisobotlarini eshitib borish, Bankning ichki audit xizmati to'g'risidagi nizomni tasdiqlash;

2.1.11. Bank boshqaruvi faoliyatiga daxldor har qanday hujjatlardan erkin foydalanish va Bank kuzatuv kengashi zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun bu hujjatlarni Bank boshqaruvidan olish. Bank kuzatuv kengashi va uning a'zolari olingan hujjatlardan faqat xizmat maqsadlarida foydalanishi mumkin;

2.1.12. auditorlik tekshiruvini o'tkazish (majburiy auditorlik tekshiruvi bundan mustasno), auditorlik tashkilotini belgilash, uning xizmatlariga to'lanadigan eng ko'p haq miqdori va u bilan shartnoma tuzish (shartnomani bekor qilish) to'g'risida qaror qabul qilish;

2.1.13. Dividend miqdori, uni to'lash shakli va tartibi to'g'risida tavsiyalar berish;

2.1.14. Bankning zaxira fondidan va boshqa fondlaridan foydalanish;

2.1.15. Bank filiallarini tashkil etish, Bankning vakolatxonolari va boshqa bo'linmalarini ochish, ularni tugatish, filiallar va vakolatxonalar to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash;

2.1.16. Bankning sho'ba va tobe xo'jalik jamiyatlarini tashkil etish;

2.1.17. qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda yirik bitimlar, Bankning affillangan shaxslari (bog'liq shaxslar) bilan bitimlar tuzish to'g'risida qarorlar qabul qilish;

2.1.18. Bankning tijorat va notijorat tashkilotlardagi ishtiroki bilan bog'liq bitimlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tuzish;

2.1.19. Bank tomonidan korporativ obligasiyalarni chiqarish, shuningdek ularni sotib olish to'g'risida qaror qabul qilish, hosilaviy qimmatli qog'ozlar, depozit sertifikatleri va boshqa qarz majburiyatlarini chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;

2.1.20. Bankning ustav kapitalini ko'paytirish, shuningdek Bank ustaviga jamiyatning ustav kapitalini ko'paytirish hamda Bankning e'lon qilingan aksiyalari sonini kamaytirish bilan bog'liq o'zgartish va qo'shimchalar kiritish;

2.1.21. Qonun hujjatlariga muvofiq aksiyalarni joylashtirish (qimmatli qog'ozlarning birja bozoriga va uyushgan birjadan tashqari bozoriga chiqarish) narxini belgilash;

2.1.22. Bankning boshqaruviga to'lanadigan haq va ularning eng yuqori miqdorlarini belgilash hamda Bankning tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash, shuningdek ularga o'zgartirish kiritish bo'yicha masalalarni maqullash va aksiyadorlar tasdig'iga kiritish;

2.1.23. Bankda korporativ boshqaruv tizimini baholash uchun mustaqil tashkilotni tanlash to'g'risida qaror qabul qilish;

2.1.24. Bank aksiyalarini va emissiya risolasini chiqarish to'g'risidagi qarorni tasdiqlash, hamda avval ro'yxatdan o'tkazilgan aksiyalarni chiqarish to'g'risidagi qarorga o'zgartirish va qo'shimchalarni kiritish;

2.1.25. Strategik maqsadlarni, korporativ boshqaruv siyosatini, bankning boshqa ichki siyosatlarini, shu jumladan tavakkalchiliklarni aniqlash, boshqarish, monitoring qilish va ular to'g'risida xabardor etish, kapitalning yetarliligini lozim darajada saqlab turish siyosatini (Risk appetiti bayonoti, kredit, bozor, operatsion va likvidlilik, tavakkalchiliklar bo'yicha stress-test o'tkazish tartibi, Stress-test senariylari va boshqa vakolat darajasiga

kiruvchi Bankning ichki me'yoriy hujjatlarini) tasdiqlash hamda ularning amalga oshirilishini nazorat qilish;

2.1.26. Bank aktivlarini tasniflash bo'yicha aniq belgilangan mezonlarni tavakkalchiliklarni boshqarish talablariga muvofiq ravishda ishlab chiqish va joriy etilishini ta'minlash, shuningdek, ularning muntazam ravishda yangilanib turishini nazorat qilish. Tasniflangan aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirilishini nazorat qilish va bank kapitali hamda umumiy zaxiralarining yetarli darajada saqlanishini ta'minlash.

2.1.27. Manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va uni bartaraf etish tartibini tasdiqlash;

2.1.28. Bankning moliyaviy holatni tiklash rejalarini tasdiqlash;

2.1.29. Bank boshqaruvi faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish;

2.1.30. Bankning qabul qilingan biznes-rejasi bajarilishi ustidan nazorat qilish, shuningdek har chorakda bankning faoliyati natijalari to'g'risida bank boshqaruvining hisobotini eshitish;

2.1.31. Bankning ichki audit xizmati faoliyatini tashkil etish, shuningdek bank ichki audit xizmatining choraklik hisobotlari asosida bank boshqaruvi tomonidan bank strategiyalari va siyosatlariga rioya etilishini baholashdan o'tkazish;

2.1.32. Bank boshqaruvi a'zolari tomonidan taqdim etilgan axborotni, takliflarni va tushuntirishlarni o'rganish, muhokama qilish hamda ular bo'yicha bahslashish;

2.1.33. Bir yilda kamida bir marta amalga oshirilgan nazorat va tekshiruv faoliyati to'g'risida aksiyadorlarning umumiy yig'ilishiga hisobot taqdim etish;

2.1.34. Yillik moliyaviy hisobotlarni tasdiqlash hamda buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlar tizimining yaxlitligini ta'minlash;

2.1.35. Bankning uzoq muddatli moliyaviy manfaatlarini va Markaziy bank tomonidan kapitalga nisbatan belgilangan talablarni hisobga olgan holda prudensial talablarga rioya etilishini ta'minlash;

2.1.36. qonun hujjatlariga, ushbu ustavga va Bankning ichki normativ hujjatlariga muvofiq Bank Kuzatuv kengashi vakolatiga kiradigan boshqa masalalarni hal qilish.

2.2. Bank Kuzatuv kengashining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar hal qilish uchun Bank Boshqaruviga o'tkazilishi mumkin emas.

2.3. Bank Kuzatuv kengashi Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan ko'rib chiqish uchun quyidagi masalalar bo'yicha takliflar kiritadi:

2.3.1. Bank Ustaviga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yoki yangi tahrirdagi Ustavni tasdiqlash;

2.3.2. Bankni qayta tashkil etish yoki tugatish;

2.3.3. Bankning yillik hisoboti, buxgalteriya balansi, foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotni, foydani taqsimlash va zararni qoplash tartibini tasdiqlash. Bankning yillik hisoboti Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining o'tkazilish sanasigacha kamida 10 kun avval Bank Kuzatuv kengashining dastlabki tasdig'idan o'tkazilishi kerak;

2.3.4. Bank xarajatlarini tasdiqlash va uni Bankning rivojlantirish Biznes-rejasi bilan solishtirish;

2.3.5. aksiyalar bo'yicha yillik dividend miqdorini va uni to'lash tartibini belgilash;

2.3.6. e'lon qilingan aksiyalarning eng yuqori miqdorini belgilash;

2.3.7. o'z aksiyalarini sotib olish;

2.3.8. aksiyalarni maydalash va jamlash;

2.3.9. aksiyalar ochiq yozilish yo'li bilan joylashtirilgan taqdirda, aksiyadorning qimmatli qog'ozlarni sotib olishga bo'lgan ustuvor huquqini aksiyaga konvertasiya qilinadigan qimmatli qog'ozlarni sotib olishga qo'llamaslik to'g'risida qaror va ushbu qarorning amal qilish muddati to'g'risida qaror qabul qilish;

2.3.10. kreditlash, aktivlar va passivlarni boshqarish, investisiyalarni amalga oshirish va Bank mijozlariga yangi turlardagi xizmatlarni ko'rsatish borasida Bank siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilash.

2.4. O'zining vazifa va majburiyatlarini bajarishda Kuzatuv kengashi ichki nazorat hamda tavakkalchiliklarni boshqarish tizimlariga tayanadi va ularni faoliyati ustidan samarali nazoratni amalga oshiradi.

III. Bank Kuzatuv kengashining majburiyatlari

3. Bank Kuzatuv kengashining majburiyatlariga quyidagilar kiradi:

3.1. Bankni holisona boshqarishni ta'minlash, o'z vakolatlarini Bank aksiyadorlarining manfaatlarini ko'zlab amalga oshirish;

3.2. Omonatchilar va aksiyadorlar manfaatlarini himoya qilish maqsadida Bank faoliyatini, shu jumladan kreditlash va mablag'larni investisiyalashning to'g'riligini joriy nazorat qilish. Har chorakda Bank Boshqaruvi hisobotlarini, shuningdek Bankning yillik Biznes-rejasini bajarish masalalarini tinglash;

3.3. Bankni mutanosib ravishda kapitallashuvini ta'minlash;

3.4. bank faoliyatining strategiyasini tashkil qilish;

3.5. Bank foydaliligini monitoring qilish;

3.6. Bankni rivojlantirishning Biznes-rejasi ijrosini nazorat qilish;

3.7. Bank Boshqaruvini tashkil qilish;

3.8. Bank ichki audit xizmati faoliyatini tashkil etish. Ichki audit xizmati rahbarining ma'ruzalarini har chorakda muntazam eshitib borish;

3.9. Bank Kuzatuv kengashi Xatarlarni boshqarish departamenti va Komplaens tavakkalchiligini boshqarish Blokining mustaqilligini ta'minlaydi va ularni faoliyati bo'yich xisobotlarni qabul qiladi.

3.10. O'zbekiston Respublikasi qonunlari va Markaziy bankning me'yoriy hujjatlariga rioya qilish;

3.11. Qonun hujjatlariga, Bank ustavida va ichki normativ hujjatlariga mavofiq Bank Kuzatuv kengashi vakolatiga kiradigan boshqa masalalarni hal qilish.

IV. Bank Kuzatuv kengashi a'zolarini saylash

4.1. Bank Kuzatuv kengashining miqdoriy tarkibi 7 kishidan iborat bo'ladi.

4.2. Bank Kuzatuv kengashi a'zoligiga uch yil muddatga Bankning ovoz beruvchi aksiyalariga egalik qiluvchi aksiyadorlar va ularning vakillari Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi qarori bilan saylanadi.

4.3. Bank Kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan shaxslar cheklanmagan tarzda qayta saylanishi mumkin.

4.4. Bank Boshqaruvi a'zolari Bank Kuzatuv kengashiga saylanishi mumkin emas. Bankda mehnat shartnomasi (kontrakt) bo'yicha ishlayotgan shaxslar Bank Kuzatuv kengashi a'zosi bo'lishi mumkin emas.

4.5. Bank Kuzatuv kengashi tarkibiga kamida 30 va ko'pida 50 foizgacha mustaqil a'zo bolishi hamda ushbu a'zolar uch yil muddatgacha saylanishi mumkin. Bunda, davlat va (yoki) xo'jalik birlashmasining ulushi ustun bo'lgan jamiyatlarda nomzod ko'rsatish hamda Bank Kuzatuv kengashining mustaqil a'zosi bo'yicha ovoz berish davlat va (yoki) xo'jalik birlashmasining vakillari tomonidan amalga oshiriladi.

4.6. Quyidagi shaxs Bank Kuzatuv kengashining mustaqil a'zosi deb e'tirof etiladi:

4.6.1. Bankda va (yoki) uning affillangan shaxslarida ishlamaydigan shaxs;

4.6.2. Bankning aksiyadori va (yoki) uning affillangan shaxsining ta'sischisi (aksiyadori, ishtirokchisi) bo'lmagan shaxs;

4.6.3. Xalqaro tajribaga ega va xalqaro yoki xorijiy moliya tashkilotlarida ishlash amaliyotiga ega bo'lgan yuqori malakali mutaxassislar;

4.6.4. Bankning va (yoki) uning affillangan shaxsining yirik mijozi va (yoki) yirik yetkazib beruvchisi bilan fuqarolik-huquqiy munosabatlarda bo'lmagan shaxs. Bunda qaysi mijoz va yetkazib beruvchi bilan eng kam ish haqining ikki ming baravaridan ko'p bo'lgan summaga teng amaldagi shartnoma mavjud bo'lsa, o'shalar yirik mijoz va yirik yetkazib beruvchi deb e'tirof etiladi;

4.6.5. Bank va (yoki) uning affillangan shaxslari bilan biror-bir kelishuvga ega bo'lmagan shaxs, bundan Kuzatuv kengashi a'zosining vazifalari va funksiyalari bajarilishini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan hollar mustasno;

4.6.6. Bankning boshqaruv va ichki nazorat organlarining va (yoki) uning affillangan shaxslarining a'zosi bo'lgan shaxsning yoki so'nggi uch yil ichida ularga a'zo bo'lgan shaxsning eri (xotini), ota-onasi (farzandlikka oluvchisi), farzandi (farzandlikka olingan bolasi), tug'ishgan va o'gay akasi (ukasi) hamda opasi (singlisi) bo'lmagan shaxs;

4.6.7. davlat boshqaruvi organining yoki davlat korxonasining xodimi bo'lmagan shaxs.

4.7. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi Bank Kuzatuv kengashini chaqirib olish va Kuzatuv kengashning yangi tarkibini saylash huquqiga ega.

4.8. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qarori bilan Bank Kuzatuv kengashining har qanday a'zosi (barcha a'zolari)ning vakolati muddatidan oldin to'xtatilishi mumkin.

4.9. Bank Kuzatuv kengashi a'zolari saylovi amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda kumulyativ ovoz berish orqali amalga oshiriladi.

4.10. Bankning bir foizdan kam bo'lmagan oddiy aksiyalari egalari bo'lgan aksiyadorlar (aksiyador) Bank Kuzatuv kengashiga mazkur organning miqdoriy tarkibidan oshmaydigan miqdorda nomzodlar ko'rsatishi mumkin.

4.11. Bank Kuzatuv kengashi tarkibiga saylanish uchun nomzodlarga qo'yiladigan talablar. Nomzod:

4.11.1. Bankning aksiyadori bo'lishi yoki yuridik shaxs-bank aksiyadorining manfaatlarini ifoda etishi;

- 4.11.2. oliy ma'lumotga ega bo'lishi;
- 4.11.3. bank va xo'jalik qonunchiligini bo'yicha yetarli bilimga ega bo'lishi lozim.
- 4.12. Bank Kuzatuv kengashiga nomzod ko'rsatish haqidagi takliflarni kiritayotganda, jumladan, o'zini-o'zi ko'rsatganda nomzodning ismi, unga tegishli bo'lgan bank aksiyalarining soni va turi, shuningdek, nomzodni ko'rsatuvchi aksiyadorlarning ismi, ularga tegishli bo'lgan aksiyalarning soni va turi ko'rsatiladi.
- 4.13. Aksiyador o'ziga tegishli bo'lgan aksiyalar bo'yicha bir nomzod uchun to'liq ovoz berishga yoki ularni bir necha nomzodlar o'rtasida taqsimlash huquqiga ega.
- 4.14. Eng ko'p ovoz olgan nomzodlar Bank Kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan hisoblanadi.
- 4.15. Quyidagi hollarda shahs Kuzatuv kengashi a'zoliciga saylanishi mamkin emas yoki saylangan shahs Kuzatuv kengashi a'zolicigi huquqidan mahrum etiladi:
- Shahs ikki yoki undan ortiq bankning kuzatuv kengashi a'zosi bo'lsa yoki a'zo bo'lishi niyatida bo'lsa, bunda mazkur banklar bir bank guruhiga tegishli bo'lgan hollar mustasno;
- Shahsning vakolatlari markaziy bank talablariga ko'ra muddatidan oldin tugatilgan bo'lsa.
- 4.16. Bank Kuzatuv kengashi a'zosining vakolati quyidagi hollarda to'xtatiladi:
- 4.16.1. O'z vakolatini ixtiyoriy ravishda zimmasidan soqit qilsa;
- 4.16.2. G'arazli jinoyatlari uchun jinoiy javobgarlikka tortilganligi haqida xabar olinsa;
- 4.16.3. U boshqarayotgan yuridik shaxsning bankrot bo'lganligi haqida xabar olinsa.
- 4.17. Vakolatni to'xtatish haqidagi qaror Bank Kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilinadi, mazkur a'zoni Bank Kuzatuv kengashi tarkibidan chiqarish haqidagi masala yaqin orada bo'lib o'tadigan Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi muhokamasiga qo'yiladi.
- 4.18. Kuzatuv kengash a'zosi saylangan muddati tugamasdan Kuzatuv kengash tarkibidan chiqib ketgan taqdirda, uning o'rniga qolgan muddatga Aksiyadorlarning navbatdagi umumiy yig'ilishida Kuzatuv kengashga yangi a'zo saylanadi.
- 4.19. Bank Kuzatuv kengashi a'zolari bankni oqilona korporativ boshqaruviga ko'maklashishi hamda o'z vakolatlarini va majburiyatlarini bajarish chog'ida bankni, uning omonatchilari va aksiyadorlarining qonuniy manfaatlarini inobatga olishi, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bilan samarali hamkorlikni ta'minlashi kerak.

V. Bank Kuzatuv kengashining Raisi va uning o'rinbosarini saylash

- 5.1. Bank Kuzatuv kengashining Raisi va uning o'rinbosarlari Kuzatuv kengash a'zolari umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan Kuzatuv kengash tarkibidan saylanadi.
- 5.2. Bank Kuzatuv kengashi o'zining Raisi va uning o'rinbosarlarini Kuzatuv kengash jami a'zolari umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qaytadan saylashga haqlidir.
- 5.3. Bank Kuzatuv kengashi raisi:
- 5.3.1. Bank Kuzatuv kengashi ishini tashkil qiladi;
- 5.3.2. Bank Kuzatuv kengashi majlisini chaqiradi va unda raislik qiladi;
- 5.3.3. Yig'ilishda bayonnoma yuritilishini tashkil etadi;

- 5.3.4. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini ochadi va unda raislik qiladi;
- 5.3.5. Bank kuzatuv kengashining mustaqil a'zolari bilan tuzilgan shartnomalarni imzolaydi.
- 5.3.6. Qonunchilikda ko'zda tutilgan ravishda Bank Boshqaruvi Raisini yollash haqidagi mehnat shartnomasini Bank nomidan imzolaydi;
- 5.3.7. Qonun hujjatlarida va Bank ustavida nazarda tutilgan boshqa harakatlarni amalga oshiradi.
- 5.4. Bank Kuzatuv kengashining Raisi bo'lmagan hollarda Rais vazifasini Kuzatuv kengash a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan belgilangan Bank Kuzatuv kengashi a'zolaridan biri bajaradi.

VI. Bank Kuzatuv kengashi majlisini o'tkazish tartibi

- 6.1. Bank Kuzatuv kengashi majlislari uning Raisi tomonidan har chorakda kamida bir marta chaqiriladi.
- 6.2. Bank Kuzatuv kengashining navbatdan tashqari majlislari Kuzatuv kengash Raisi tomonidan uning shaxsiy tashabbusi bilan yoki quyidagilar talab (taklif) qilganda chaqiriladi:
- 6.2.1. Bank Kuzatuv kengashining a'zosi;
 - 6.2.2. Bank Boshqaruvi;
 - 6.2.3. Ichki audit xizmati rahbari;
 - 6.2.4. O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki.
- 6.3. Bank Kuzatuv kengashining majlisini o'tkazish haqidagi xabar Kuzatuv kengash a'zolariga majlis o'tkazish vaqti, joyi va kun tartibiga kiritilgan masalalar ko'rsatilgan holda electron pochta, e-xat, telegramm tizimi yoki xat orqali majlis o'tkaziladigan kundan kamida uch kun oldin yuboriladi. Bank Kuzatuv kengashining majlislari sirtidan o'tkazilishi ham mumkin.
- 6.4. Bank Kuzatuv kengashining kun tartibidagi masalalar bo'yicha qarorlar loyihasi, ma'lumotnomalar va zarur bo'lgan ma'lumotlar Bank Kuzatuv kengashining ish rejasiga muvofiq tayyorlanadi, qo'shimcha masalalar bo'yicha esa ularni kiritgan tashabbuskorlar tomonidan tayyorlanadi. Kuzatuv kengashning kun tartibidagi barcha masalalar, qoidaga ko'ra, oldindan Bank Boshqaruvida muhokama qilinadi.
- 6.5. Kuzatuv kengashi a'zolari qo'shimcha ma'lumotlarni olishga zarurat tug'ilganda Bank Boshqaruvi a'zolari orqali so'rab oladilar.
- 6.6. Agar Bank Kuzatuv kengashiga saylangan a'zolarining kamida 75 foizi Kuzatuv kengash majlisida qatnashsa, bunday hollarda u vakolatli hisoblanadi.
- 6.7. Bank Kuzatuv kengashi a'zolarining soni saylanganlarning 75 foizidan kam bo'lgan taqdirda, Bank Kuzatuv kengashining yangi tarkibini saylash uchun Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan Aksiyadorlarning navbatdan tashqari Umumiy yig'ilishi chaqiriladi. Kuzatuv kengashning qolgan a'zolari faqat Aksiyadorlarning bunday navbatdan tashqari yig'ilishini chaqirish haqida qaror qabul qilish huquqiga ega.
- 6.8. Bank Kuzatuv kengashining majlisini Bank Kuzatuv kengashi Raisi yoki uning vazifasini vaqtincha bajaruvchi olib boradi. Muhokamadan so'ng raislik qiluvchi tomonidan taklif qilingan kun tartibi va unga kiritilgan masalalarning muhokama etish tartibi qabul qilinadi. Kuzatuv kengashi a'zolari ko'pchilik ovoz bilan majlis kun tartibiga o'zgartishlar

kiritish huquqiga ega.

6.9. Bank Kuzatuv kengashi majlisidagi qarorlar ishtirokchilarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Bank Kuzatuv kengashining har bir a'zosi bir ovozga ega. Ovozlar teng bo'lganda, Bank Kuzatuv kengashi Raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

6.10. Majlisda qarorlarni qabul qilish, qoidaga ko'ra, ochiq, ovoz berish yo'li bilan amalga oshiriladi. Yashirin ovoz berish faqat Bank Kuzatuv kengashi a'zolaridan birining talabi bilan o'tkaziladi.

6.11. Bankning Kuzatuv Kengashi a'zolari tomonidan davlat sirini tashkil etuvchi va "maxfiy" toifadagi hujjatlar/ma'lumotlar bilan ishlash O'zbekiston Respublikasining "Davlat sirlarini saqlash to'g'risida"gi Qonunga asosan amalga oshiriladi. Bunda, Kuzatuv Kengashi tomonidan ko'rib chiqiladigan davlat sirini tashkil etuvchi va "maxfiy" toifadagi hujjatlar, ular bilan ishlash uchun maxsus ruxsatnomaga ega bo'lmagan Kuzatuv kengashi a'zolariga yuqoridagi qonunga binoan tanishtirilmaydi va ular bilan kelishilmaydi. Mahfiy bayonnomalar birinchi bo'limda saqlanadi.

6.12. Bank Kuzatuv kengashining bir a'zosi o'z ovozini Kuzatuv kengashning boshqa a'zosiga berishiga yo'l qo'yilmaydi.

6.13. Bank Kuzatuv kengashining majlisida maslahat ovozi berish huquqi bilan Bank Boshqaruvi Raisi va zarur bo'lganda, Sanoq komissiyasi a'zolari ishtirok etadilar.

6.14. Kuzatuv kengash majlisiga Boshqaruv Raisining o'rinbosarlari, Bank Boshqaruvining a'zolari, bo'linmalarning rahbarlari, shuningdek muhokama qilinayotgan masalalar bo'yicha mutaxassislar taklif etilishi mumkin.

6.15. Bank Kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi yozib boriladi. Bank Kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi majlis o'tgandan keyin 10 kundan kechikmay tuziladi.

6.16. Majlis yopilgach, Bank Kuzatuv kengashining barcha a'zolari kun tartibi bo'yicha olgan materiallarni majlis bayonnomasini ishlab chiqishda ularning fikr mulohazalarini hisobga olish uchun qaytarib beradilar.

6.17. Bank Kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasida quyidagilar ko'rsatiladi:

6.17.1. majlis o'tkazilgan sana, vaqt va joy;

6.17.2. majlisda hozir bo'lgan shaxslar;

6.17.3. majlisning kun tartibi;

6.17.4. ovozga quyilgan masalalar, ular yuzasidan o'tkazilgan ovoz berish yakunlari;

6.17.5. qabul qilingan qarorlar.

6.17.6. Muhokama qilinayotgan masala yuzasidan yakdillik bo'lmagan taqdirda kim «rozi», kim «qarshi», kim «betaraf» ovoz berganligi nomma-nom ko'rsatiladi.

6.18. Bank Kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi majlisda ishtirok etayotgan Bank Kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan imzolaniadi, ular majlis bayonnomasi to'g'ri rasmiylashtirilishi uchun javobgar bo'ladi. Bank Kuzatuv kengashi majlisi bayonnomasining asl nusxasi doim saqlanishi lozim bo'lgan hujjat hisoblanadi va u imzolanganach, arxivga topshirilguncha Bank Kuzatuv kengash kotibining temir shkaf (seyf)da saqlanadi.

6.19. Bank Kuzatuv kengashi bayonnomalari imzolangan kuni Bank Boshqaruviga ijro etish uchun topshiriladi. Bank Kuzatuv kengashi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida qaror qabul qilgan taqdirda mazkur qaror haqidagi axborot Bank Boshqaruviga Bank Kuzatuv kengashining majlisi o'tkaziladigan kuni topshiriladi.

6.20. Davlat, bank yoki tijorat siri deb hisoblangan masalalar bo'yicha Bank Kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasiga tegishli yozuvlar kiritiladi. Bank Kuzatuv kengashining qarorlari bilan (bank yoki tijorat siri deb hisoblanganlardan tashqari) Bank aksiyadorlari tanishtirilishi mumkin.

VII. Bank Kuzatuv kengashi a'zolarinipg huquqlari va burchlari

7.1. Bank Kuzatuv kengashining a'zosi quyidagi huquqlarga ega:

7.1.1. Bank Kuzatuv kengashining majlisida shaxsan ishtirok etish, majlisda muhokama etilayotgan masala yuzasidan ajratilgan vaqt reglamenti doirasida so'zga chiqish, o'z nuqtai-nazarini himoya qilish;

7.1.2. Bankning muayyan davrdagi faoliyati natijalari va uni rivojlantirish rejalari haqida ishonchli va to'liq ma'lumotlar olish, Bank mijozlari va vakillarining operatsiyalari, hisobvaraqlari va omonatlari bundan mustasno;

7.1.3. Kuzatuv kengashda ko'rib chiqish uchun Bank Kuzatuv kengashining vakolat doirasiga kiradigan masalalar bo'yicha takliflar kiritish;

7.1.4. Bank Kuzatuv kengashida unga yuklangan vazifalarni bajargani uchun muayyan mukofot olish.

7.2. Bank Kuzatuv kengashi a'zolarining burchlari:

7.2.1. Bank va uning aksiyadorlari manfaatlarini ko'zlab harakat qilish;

7.2.2. Bank obro'sining oshishi, uning rivojlanishi va moliyaviy barqarorligining mustahkamlanishiga yo'naltirilgan tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirilishiga erishish;

7.2.3. O'z lavozim vakolatlaridan vijdonan, shuningdek, Bankning ustavdagi vazifalarini bajarishda eng maqbul usuldan foydalanish;

7.2.4. Bank faoliyatida faol qatnashishi, uning faoliyatidagi va tashqi sharoitlardagi muhim o'zgarishlarni kuzatib borishi, shuningdek, uzoq muddatli istiqbolda bank manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan choralarni o'z vaqtida ko'rishi;

7.2.5. Bankning korporativ madaniyati va qadriyatlari shakllanishida yetakchi o'rinni tutishi;

7.2.6. Ko'rib chiqilayotgan masalalar yuzasidan kengashning boshqa a'zolari, boshqaruv a'zolari va bank xodimlarining qarashlaridan qat'i nazar o'zining asoslangan fikrini bildirishi;

7.2.7. Mas'uliyatni his qilgan holda javobgarlikni va jonkuyarlikni namoyon qilishi va sodiqlik bilan xizmat qilishi, bank va uning barcha aktsiyadorlari manfaatlarini ko'zlab, yuklatilgan vazifa va majburiyatlarni vijdonan va oqilona amalga oshirishi, o'zining yoki ayrim shaxslar manfaatlari yo'lida o'z vakolatlarini suiiste'mol qilmasligi;

7.2.8. Manfaatlar to'qnashuviga olib keluvchi harakatlardan qochishi, shuningdek, manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelganligi haqida darhol kengashga xabar berishi va uni bartaraf etish yuzasidan chora ko'rishi;

7.2.9. Kengash va uning qo'mitalari majlislarida o'z vakolatlarini uchinchi shaxsga o'tkazmagan holda ishtirok etishi;

7.2.10. Kengashga a'zoligi chog'ida o'ziga ma'lum bo'lib qolgan tijorat, bank siri va qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi ma'lumotlarning maxfiyligiga rioya etishi

7.3. Bank Kuzatuv kengashi va auditor c'tiboriga quyidagi axborotni yetkazish:

7.3.1. O'zlari mustaqil yoki aloqador shaxs (shaxslar) orqali ovoz beruvchi aksiyalar (ulushlar, paylar)ining 10 foizi va undan ortiq qismiga ega bo'lgan yuridik shaxslar to'g'risida;

7.3.2. Boshqaruv organlarida o'zlari rahbarlik lavozimlarida bo'lgan yuridik shaxslar to'g'risida;

7.3.3. Ularga ma'lum, o'zlari manfaatdor shaxs deb tan olinishlari mumkin bo'lgan, Bank bilan amalga oshirilayotgan yoki mo'ljallangan bitimlar to'g'risida.

7.3.4. Bank Kuzatuv kengashi majlisi va Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida u manfaatdor shaxs deb tan olinishi mumkin bo'lgan Bank bilan tuzilayotgan bitim to'g'risida masala hal qilinayotganda muhokama va ovoz berishda qatnashmaslik.

7.4. Bank Kuzatuv kengashi a'zolarining vazifalarini Kuzatuv kengashi Raisi taqsimlaydi.

7.5. Bank Kuzatuv kengashi a'zolari Kuzatuv kengashi yoki Bank Boshqaruvining u yoki bu qarorni qabul qilishida ko'rsatgan ta'siri uchun bevosita yoki bilvosita haq olish huquqiga ega emas.

7.6. Bank Kuzatuv kengashining a'zolari Bankning imkoniyatlari (mulkiy va nomulkiy huquqlari, xo'jalik faoliyati doirasidagi imkoniyatlar, Bankning faoliyati va rejalari haqidagi ma'lumotlari)dan o'zining shaxsiy boyishi uchun foydalanish huquqiga ega emas.

7.7. Bank Kuzatuv kengashi a'zolari o'z burchlarini bajarganliklari uchun aksiyadorlarning umumiy yig'lishi qarori bilan Bank faoliyatining moliyaviy natijalari va ularning Kuzatuv kengashi ishidagi ishtirokiga mutanosib miqdorda haq oladilar.

7.8. Bank faoliyatidagi ishtiroklari uchun Kuzatuv kengashi a'zolariga haq to'lanmaydi (kuzatuv kengashining mustaqil a'zolari bundan mustasno). Kuzatuv kengashining mustaqil a'zolariga haq to'lash tasdiqlangan nizomga muvofiq amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qaroriga asosan Kuzatuv kengashi a'zolariga Bank faoliyatidagi ishtiroklari uchun haq to'lanishi mumkin.

7.9. Davlat xizmatchisi, davlat ishtirokidagi korxonalar va tijorat banklari vakillari xisoblanmagan hamda kuzatuv kengashining davlat ulushi bo'yicha tayinlangan va mustaqil bo'lmagan a'zolari uchun Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan holda aksiyadorlar umumiy yig'ilishi qaroriga asosan kuzatuv kengashining mustaqil a'zolariga belgilangan miqdor doirasida mukofot tayinlanishi mumkin.

7.10. Bank Kuzatuv kengashi a'zosi o'ziga yuklatilgan majburiyatlarni bajarish uchun Bankning mulkidan foydalanish, o'z xizmat vazifalari bilan bog'liq barcha xarajatlar badalini to'liq olish huquqiga ega.

VIII. Bank aksiyadorlarining huquqlari va manfaatlarini himoya qilish

8.1. Bank aksiyadorlarining huquq va manfaatlarini himoya qilish Bank Kuzatuv kengashi tomonidan quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi:

8.1.1. Aksiyadorlarning manfaatlarini hisobga olgan holda Bank faoliyatini tashkil qilish;

8.1.2. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining tayyorlanishi va o'tkazilishi, ovoz berish va ovozlarni sanash, qarorlar qabul qilish jarayonlarini nazorat qilish;

8.1.3. Ustav kapitalini ko'paytirish yoki kamaytirish, qo'shimcha qimmatli qog'ozlar chiqarish va boshqa yo'llar bilan Bank ustav kapitalining ulushi o'zgartirilgan hollarda aksiyador huquqlarining kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik;

8.1.4. Bankning dividend siyosatini tasdiqlash;

8.1.5. Bank aksiyadorlari bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqish;

8.1.6. Boshqaruvning noqonuniy va bilimsizlik bilan qilgan harakatlari haqidagi aksiyadorlarning taklif va shikoyatlarini qabul qilish, ularni ko'rib chiqish.

IX. Bank faoliyatini nazorat qilish

9.1. Bank Kuzatuv kengashi Boshqaruvdan vaqti-vaqti bilan Bankning faoliyati va moliyaviy ahvoli haqida, ularni yaxshilash bo'yicha tavsiyalar kiritgan holda, yozma ravishda hisobot va sharhlarni oladi, shuningdek Boshqaruv Raisi, ichki audit xizmati, xatarlarni boshqarish va Komplaens tavakkalchiligini boshqarish Blokining hisobotlarini tinglashi mumkin.

9.1.1. Kuzatuv kengash a'zolari bunday hisobot va tavsiyalarning to'g'riligini va amalga oshirish mumkinligini aniqlash maqsadida ularni sinchiklab tekshiradi.

9.2. Bank Kuzatuv kengashining doimiy nazorat predmeti deb, chunonchi quyidagi moliyaviy koeffitsiyentlar hisoblanadi:

9.2.1. Aktivlarga nisbatan daromad;

9.2.2. Oddiy aksiyalar bo'yicha daromad;

9.2.3. Umumiy foiz marjasining miqdori;

9.2.4. Aktivlarga nisbatan foizlarni to'lash bilan bog'lik bo'lmagan Bank harajatlari;

9.2.5. Barcha kreditlarga nisbatan shubhali va umidsiz kreditlarning xissasi;

9.2.6. Yirik kreditlarning summasi;

9.2.7. Bank bilan bog'liq bo'lgan (affillangan) shaxslarga kreditlar.

9.3. Bank Kuzatuv kengashi ahloq (etika) kodeksini ishlab chiqilishini va amalga oshirilishini nazorat qiladi, bu kodeks xodimlar va boshqaruv a'zolarining yuqori etika mezonlariga rioya qilishlarini ta'minlaydi, shuningdek, bank manfaatlar to'qnashuvini aniqlash va uni boshqarish bo'yicha aniq tartiblarni joriy qilinishini nazorat qiladi.

X. Kadrlar siyosatini amalga oshirish

10.1. Bank Kuzatuv kengashi Bank Boshqaruvi ishtirokida kadrlar siyosatini, malakali rahbarlar va xodimlarni jalb etish va ularni ushlab turish, Bankning Ustavida ko'rsatilgan o'z vazifalarini bajarishida ularning javobgarligini nazorat qiladi va amalga oshiradi.

10.2. Kadrlar siyosatiga quyidagilar kiradi:

10.2.1. Bankda ishlash uchun mutaxassislarni tanlash tizimi;

10.2.2. Xodimlarga haq to'lash, ularni rag'batlantirish va jazolash tizimi;

10.2.3. o'qitish va qayta o'qitish dasturi;

- 10.2.4. rahbarlik lavozimlari bo'sh qolgan hollarda vakansiyalarni butlash;
- 10.2.5. Bank rahbariyati, mutaxassislari va boshqa xodimlarini ishdan bushatish majburiy bo'lgan holatlarini belgilash;
- 10.2.6. xodimlar faoliyatini baholashning rasmiy tartibi.
- 10.3. Bank Kuzatuv kengashi yollashning kontrakt tizimi bo'yicha Bank va uning xodimlari o'rtasidagi mehnat munosabatlari tuzilishini nazorat qiladi.
- 10.4. Bank Kuzatuv kengashi quyidagilarni ishlab chiqadi va tasdiqlaydi:
- 10.4.1. Boshqaruv a'zolari va Bankning asosiy xizmatidagi rahbarlarning ishiga baho berish mezon;
- 10.4.2. axloq (etika) kodeksi va manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar;
- 10.4.3. Bank mansabdor shaxslarining layoqatsizligi, vijdotsizligi, manfaatlar to'qnashuvi yoki boshqa sabablarga ko'ra zimmasiga yuklatilgan vazifalardan chetlashtirish shartlarining ro'yxati.

XI. Bankning mutanosib sarmoyalanishini qo'llab-quvvatlash

- 11.1. Bank kapitalini saqlash va uning bank operasialari ko'lam va xatar darajasiga muvofiqligini ta'minlash maqsadida Bank Kuzatuv kengashi:
- 11.1.1. ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki belgilab bergan miqdorda Bank tomonidan maxsus zahira yaratilishini nazorat qiladi;
- 11.1.2. Bankning moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan minimal kapital miqdorini saqlash bo'yicha choralarni ko'radi va bu borada O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki belgilab bergan talablariga rioya qilinishini kuzatib boradi;
- 11.1.3. Bank Boshqaruvidan bank tavakkalchiligining Markaziy bank belgilaganidan yuqori bo'lmagan darajada ta'minlanishini talab qiladi;
- 11.1.4. Bank aksiyalarini joylashtirish choralarni ko'radi;
- 11.1.5. Bank kapitali va umumiy zahiralarining yetarli darajada bo'lishini ta'minlaydi.

XII. Bankni rivojlantirish biznes-rejasini tuzish va bajarish

- 12.1. Bank Kuzatuv kengashi Bank Boshqaruv bilan birgalikda (mustaqil tarzda va chetdan maslahatchi hamda ekspertlarni jalb qilgan holda) Bankni rivojlantirish strategiyasini, transformatsiya rejasini ishlab chiqadi va tasdiqlaydi.
- 12.2. Bank Kuzatuv kengashi Bankni rivojlantirish strategik rejasini va biznes-rejasining Bank Boshqaruvi tomonidan bajarilishini nazorat qiladi.
- 12.3. Bankni rivojlantirish strategiyasini, transformatsiya rejasini zarur bo'lganda o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish maqsadida, kamida bir yilda bir marta qayta ko'rib chiqadi.

XIII. Bank Kuzatuv kengashi a'zolarining javobgarligi

- 13.1. Bankning kuzatuv kengashi a'zolari bankning oqilona korporativ boshqaruviga ko'maklashishi hamda o'z vakolatlarini va majburiyatlarini bajarish chog'ida bankning, uning omonatchilari va aksiyadorlarining qonuniy manfaatlarini inobatga olishi, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank bilan samarali hamkorlikni ta'minlashi kerak.

XIV. Yakuniy qoidalar

14.1. Mazkur Nizom, shuningdek, unga kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalar Bank Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan kundan boshlab kuchga kiradi va ular bekor qilinmaguncha amal qiladi.

14.2. Mazkur Nizom kuchga kirgan kundan boshlab "O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki" aksiyadorlik jamiyati Kuzatuv kengashi majlisining 2022 yil 15 avgustdagi 35 – sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan "“O'zbekiston respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki” aksiyadorlik jamiyati Kuzatuv kengashi to'g'risida”gi Nizom (2021 yil 30 sentyabrdagi 590 raqamli) o'z kuchini yo'qotadi.